BOSHLANG‘ICH SINFLARDA “MATN” MAVZUSINING O‘RGATILISHI

Safarova Feruza
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Ataqulova Mohinur
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchlaridagi ijodiy fikrlash va nutqni o‘stirish asosiy o‘rinni egallaydi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan har bir fan yosh avlodning har tomonlama komil, bilimli, jamiyatga foydali shaxs bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadigan bu jarayon o‘z-o‘zidan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga bog‘liq va buning br nechta ko‘rinishlari ushbu tezisda berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: notiqlik, nutq, sinfdan tashqari ishlar,ta’lim tizimi, tanlov ssenariy, viktorina ,konkurs, olimpiada.

Abstract. In this thesis, the development of creative thinking and speech of elementary school students occupies a key place. Every subject taught in general secondary schools is important for the development of the young generation as a well-rounded, educated, and useful person for the society. This process depends on the primary teacher. and several manifestations of it are given in this thesis.

Keywords:public speaking, speech, extracurricular activities, education system, script competition, quiz, contest, olympiad.

Ta’limiy g‘oyalar taraqqiyoti tarixining barcha bosqichlarida ham shaxs nutqini o‘stirishga alohida e’tibor qaratib kelingan. Ayniqsa, notiqlik san’atining eng yuksak bosqichlari – qadimgi Rim va Gretsiyada yosh avlod nutqini rivojlantirish, ularda nutq, so‘z kuchi yordamida ijtimoiy sub’ektlarga ta’sir ko‘rsatish, hatto, ijtimoiy guruhlarni ta’sirchan, yuqori darajada hissiy-estetik bayon etilgan nutq yordamida boshqarish qobiliyatini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lishiga erishilgan. Bugungi kunda ham nutqni rivojlantirish “boshlang‘ich sinflar oldiga qo‘yilayotgan muhim vazifa sanaladi, binobarin, nutq har qanday aqliy faoliyatning asosi va insoniy muloqot vositasi” bo‘lib, uning yordamida “ta’lim tizimi oldida turgan tilshunoslik, psixologik-pedagogik, metodik-didaktik xarakterga ega” o‘qitish ishlarining sifatini yaxshilashga erishiladi. Nutq o‘stirish “boshlang‘ich ta’lim tizimida uzviylik asosida amalga oshiriladi, bir butun o‘qish jarayoniga amaliy yo‘nalish beradi va bolalarning ongli o‘qish, uqqanlarini tushunarli qilib so‘zlab berish, savodli yozishga o‘rgatadi. Bolalarning yosh xususiyatini va saviyasini hisobga olgan holda, ona tili va adabiyotdan boshlang‘ich bilim beriladi va shular asosida ularning nutqi boyitiladi”. O‘quvchilar nutqini o‘stirish turli xil usullarda amalga oshirilishi mumkin va ulardan biz ko‘rib chqadiganimiz turli tadbir va tanlovlar ko‘rinishida bo‘ladi.

Sinfda o‘tkaziladigan tarbiyaviy ta’sir o‘qituvchilar, ota-onalar, jamoatchilik va o‘quvchilar tashkilotlarining kuchlarini o‘quvchilarning o‘qish muvafaqqiyatiga tarbiyaning ta’sirini oshirish maqsadida birlashtirish bilan bog‘liq. O‘qishda qiynalayotgan bolalarga nisbatan qulay axloqiy iqlim yaratish muhimdir. Bunda birinchi navbatda bolaning ustidan kulish, haqoratlashlariga yo‘l qo‘ymaslik, ta’sirini antipedagogik usullarga yo‘l bermaslik zarur. Bunday iqlim yakdil tashkil e’tilgan jamoadagina yaratish mumkin. Shuning uchun ham o‘zlashtirmaslikning oldini olishning muhim tarbiyaviy ta’sirlaridan biri o‘quvchilar jamoasida birdamlikni tarbiyalash, o‘qishga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda yoshlar tashkilotining rolini oshirish bo‘yicha tadbirlar tashkil e’tish muhim hisoblanadi..

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning bilimlari, va amaliy ko‘nikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirishga, o‘quvchilarning topqirliklarini, ziyrakligini oshirishga, ona tiliga qiziqishini orttirishga, qobilyatli, layoqatli, bolalarni topish, talabchanlik va irodani tarbiyalashga, mehnatga muhabbatni, mustaqillikni, uyushqoqlikni, va jamoatchilikni tarbiyalashga yordam beradi.

Yoshlar, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida kitobga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni oshirish zarur. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining kitobxonlik qobiliyatlarini rivojlantirish, notiqlik mahoratini oshirish, o‘z fikrini teran bayon qilishga, shu orqali ularda o‘z qobiliyati va iqtidorini namoyon etishlariga ko‘maklashishda esa turli xil ko‘rik-tanlovlar, kitobxonlik tanlovlari, adabiy kechalar tashkil qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Tanlovlar o‘quvchilarda muammoni hal qilish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi muayyan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ular o‘quvchilarni fanlar bilan chuqur shug‘ullanishga undaydi,o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga intilish uchun maqsadlar qo‘yish, ular muvaffaqiyatga erishganlarida muvaffaqiyat hissini uyg‘otishi mumkin. Tanlovlarda qatnashish ko‘pincha jamoaviy ish, hamkorlik va muloqotni talab qiladi, bu o‘quvchilarga muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Bayramlar o‘quvchilar, oilalar va o‘qituvchilarni birlashtirib, tegishlilik tuyg‘usini rivojlantirish orqali maktab jamoalarini mustahkamlashi mumkin. xBayramga bag‘ishlangan tadbirlar san’at, musiqa va spektakllar orqali ijodkorlikni rag‘batlantiradi, bu esa o‘quvchilarga o‘zlarini turli yo‘llar bilan qobiliyatlarini ko‘rsatish imkonini beradi, shuningdek ko‘plab bayram tadbirlari rejalashtirish va tashkil etishni o‘z ichiga oladi (masalan, sinf tadbirini tashkil etish), o‘quvchilarga amaliy hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Bayramshunos olim, professor U.X.Qoraboyev “Badiiy ommaviy tadbirlar” kitobida shunday yozadi: “Ssenariy yozish bilan kim shug‘ullanmasin, u quyidagi talablarga javob bermog‘i lozim:

- Ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushini chuqur tushuna oladigan hamda uni to‘g‘ri tahlil qila oladigan shaxs bo‘lmog‘i;

- Adabiyot va dramaturgiya sohasida bilimga ega bo‘lgan, ulardan samarali foydalana oladigan kishi bo‘lishi;

- Hayotiy materiallarni, hujjatli dalillarni yig‘a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila oladigan ijodkor bo‘lmog‘i lozim”.

Har bir boshlang‘ich snf o‘qituvchisi ssenariy tuzishni,bayram va tanlovlar tashkillashtirishni bilishi lozim. Bu orqali o‘quvchilarda nutq komponentlari, ijodiy yondashuv, erkin fikrlash, matnni anglash tushunchalari shakllantiriladi.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar tashkil qilish o‘quvchilarning har tomonlama bilimini o‘stirish, nutqini rivojlantirish va ularni bir mavzu ostida birlashuvini ta’minlash vazifasini bajaradi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash kerakki, ommaviy bayramlar vaqt o‘tishi va texnikaning rivojlanishi bilan sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilib, rivojlanib boradi. Eng asosiysi ssenariy yozilish davri, ijtimoiy muhiti, tarbiyaviy ahamiyati bilan tomoshabinlarda o‘zgacha ta’sir qoldirishi lozim. Asosiysi, ssenariy muallifi tomosha san’atini yaxshi tushunishi va ssenariynavislik talablariga javob berishi, tomoshabinni bayram e’tirofida o‘z aksini ya’ni ijobiy ta’sirini qoldirishi juda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haydarov A. Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish. Tashkil etish va boshqarish. A Haydarov. Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish fanidan o‘quv qo‘llanma, 2023.

2. Haydarov. A Madaniyat va san’at sohasini boshqarish asoslari [Matn]: o‘quv qo‘llanma. A. Haydarov. - T.:«Kamalak» nashriyoti, 2019.

3. F. E. Ahmedov. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent - 2021.